



NAMANGAN VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

**NAMANGAN  
VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2024- YIL  
YANVAR-MAY**

2024-yilning yanvar-may oyida, Namangan viloyatida jami **2579,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **107,0 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

27,7

6,0

66,3


Norasmiy sektor

Kichik korxona  
va mikrofirmalar

**2024- yil 1- iyun holatiga  
ko‘ra qurilish ishlari  
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar, birlikda**



**Yillar kesimida soni**



792

Bino va inshootlar  
qurilishi


233

Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

451

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

**Hududlar kesimida**



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o’zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023- yil bilan solishtirganda 90,1 foizni tashkil etgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 53,6 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 15,8 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 30,6 foiz ulushni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.06.2023- y.	01.06.2024- y.	
Namangan viloyati	1638	1476	90,1

*tumanlar:*

Mingbuloq	53	47	88,7
Kosonsoy	169	138	81,7
Namangan	70	58	82,9
Norin	92	85	92,4
Pop	102	88	86,3
To'raqo'rg'on	71	64	90,1
Uychi	170	150	88,2
Uchqo'rg'on	134	97	72,4
Chortoq	106	98	92,5
Chust	122	133	109,0
Yangiqo'rg'on	86	76	88,4
Namangan shahar	463	442	95,5
shundan			
Davlatobod	132	126	95,5
Yangi Namangan	114	125	109,6



**2024- yil 1- iyun holatiga ko‘ra  
Namangan viloyatida  
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish  
korxonalarini ulushi, % da**




Namangan sh.(29,9)



Uychi (10,2)



Kosonsoy (9,3)





## Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-may uchun

	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2579816,2</b>	<b>155268,7</b>	<b>1710713,9</b>	<b>713833,6</b>
<b>tumanlar:</b>				
<b>Mingbulloq</b>	81570,6	7048,7	53771,7	20750,2
<b>Kosonsoy</b>	208671,5	18241,2	95368,7	95061,6
<b>Namangan</b>	171256,8	20103,4	95052,8	56100,5
<b>Norin</b>	132289,2	6418,5	59085,7	66785,0
<b>Pop</b>	166653,5	21828,2	113298,3	31527,0
<b>To'raqo'rg'on</b>	145342,5	3741,2	105402,0	36199,2
<b>Uychi</b>	230153,7	4665,9	179507,5	45980,3
<b>Uchqo'rg'on</b>	172193,5	24166,6	85303,4	62723,5
<b>Chortoq</b>	232736,7	9425,0	149857,9	73453,9
<b>Chust</b>	121694,5	3348,1	50854,8	67491,6
<b>Yangiqo'rg'on</b>	171145,0	6665,3	94429,5	70050,2
<b>Namangan sh.</b>	746108,7	29616,6	628781,6	87710,6
<b>shundan</b>				
<b>Davlatobod</b>	247988,5	0,0	237960,7	10027,8
<b>Yangi Namangan</b>	177847,6	0,0	165358,1	12489,5


2024- yilning yanvar-may oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 155268,7 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 114,1% ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari


## 2024- yil yanvar-may uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Uchqo'rg'on tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 14,0 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-may oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 66,3% to‘g‘ri kelib. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yil yanvar-may oylariga nisbatan 105,8 % ni tashkil etgan holda 1710713,9 mln. so‘m miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




66,3

2024- yil  
yanvar-may


67,6

2023- yil  
yanvar-may



**MA’LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Namangan shahri (628781,6mln. so‘m hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 84,3 %), Uychi tumani (179507,5 mln. so‘m yoki 78,0 %), To‘raqo‘rg‘on tumani (105402,0 mln. so‘m yoki 72,5 %)ga to‘g‘ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 27,7 % ni tashkil etdi yoki 713833,6 mln. so‘m miqdorida qayd etildi. 2023- yil yanvar-may oylariga nisbatan 108,5 % ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 133338,1 mln. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2446478,1 mln. so‘m qurilish ishlari bajarildi.

2023- yil yanvar-may



2024- yil yanvar-may



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2024- yil yanvar-may oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **74,2 %** yoki **1915067,7 mln. soʻm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**3,7 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **70995,5 mln. soʻmlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **3,7 %** ni tashkil etdi.

**59,7 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1142388,7 mln. soʻm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **59,7 %** ni tashkil etdi

**36,6 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **701683,5 mln. soʻm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **36,6 %** ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-may oylarida


	Qurilish ishlari, mln. so'm	o'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2579816,2</b>	<b>107,0</b>	<b>1915067,7</b>
<b>tumanlar:</b>			
Mingbuloq	81570,6	109,9	63197,2
Kosonsoy	208671,5	96,5	149375,3
Namangan	171256,8	98,9	130224,6
Norin	132289,2	102,6	93838,3
Pop	166653,5	98,5	132139,7
To'raqo'rg'on	145342,5	109,2	105328,7
Uychi	230153,7	97,8	168526,0
Uchqo'rg'on	172193,5	115,8	124479,4
Chortoq	232736,7	117,0	174271,2
Chust	121694,5	103,4	91923,2
Yangiqo'rg'on	171145,0	125,3	122564,3
Namangan shahri	746108,7	109,9	559199,8
shundan			
Davlatobod	247988,5	157,1	185761,6
Yangi Namangan	177847,6	116,6	134054,7

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da



Yirik qurilish  
tashkilotlari



Kichik korxona  
va mikrofirmalar



Norasmiy  
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,1 % ni tashkil etgan. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 63,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 33,5 % ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 19,0 % ni tashkil etdi.
- Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 81,0 % hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari

2023- yil yanvar-may



Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

2024- yil yanvar-may

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari hamda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 0,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 100,0 % ni kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etgan.

**1,1**

2023- yil  
yanvar-may

2023- yil  
yanvar-may

**98,9**

**0,0**

2024- yil  
yanvar-may

2024- yil  
yanvar-may

**100,0**

**Yirik qurilish  
tashkilotlari  
ulushi**

**Kichik korxona va  
mikrofirmalar  
ulushi**

# Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-may



	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	839,5	104,6
<b>tumanlar:</b>		
Mingbuloq	594,5	107,6
Kosonsoy	913,2	94,3
Namangan	886,9	96,6
Norin	751,2	100,7
Pop	705,9	96,7
To'raqo'rg'on	591,5	106,7
Uychi	988,2	98,2
Uchqo'rg'on	927,3	113,5
Chortoq	1081,0	114,5
Chust	425,1	101,3
Yangiqo'rg'on	720,3	122,7
Namangan shahri	1068,2	106,1

# Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-may



Hududlar kesimida 2024- yil yanvar-may oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Chortoq tumani – 1081,0 ming so'm yoki, 2023- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 117,0 %, undan keyin mos ravishda Namangan shahri– 1068,2 ming so'm (yoki 109,9 %)egalladi.

**Namangan viloyati Investitsiyalar va  
qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(69) 227-84-85**